QO‘SHMA GAPLARNI NUTQIY VAZIYATLAR ORQALI O‘QITISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVNI QO‘LLASH

Yulduz Mirkamolova
Toshkent viloyati Parkent tumani 5-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada qo‘shma gaplarni nutqiy vaziyatlar asosida o‘qitishda kommunikativ yondashuvdan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Qo‘shma gaplarni o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarning grammatik bilimlarini amaliy nutq faoliyati bilan uyg‘unlashtirish, fikrni aniq, ravon, izchil va mantiqiy ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishda nutqiy vaziyatlar, interaktiv metodlar, ko‘rgazmali kommunikativ jadvallar, audio-video vositalar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqolada qo‘shma gaplarni o‘qitishda leksik, fonetik, grammatik, imloviy, stilistik-uslubiy va aralash jadvallardan foydalanishning pedagogik samaradorligi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, fanlararo aloqadorlik asosida o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijalari qo‘shma gaplarni kommunikativ yondashuv asosida o‘qitish o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasi va kommunikativ savodxonligini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: qo‘shma gap, kommunikativ yondashuv, nutqiy vaziyat, kommunikativ savodxonlik, nutqiy kompetensiya, interaktiv metod, grammatik bilim, ko‘rgazmali vosita, fanlararo aloqadorlik, og‘zaki va yozma nutq.

Annotation

This article discusses the theoretical and practical aspects of applying a communicative approach to teaching complex sentences through speech situations. Particular attention is paid to combining students’ grammatical knowledge with practical speech activities and developing their ability to express ideas clearly, fluently, consistently, and logically. The article also examines the possibilities of using speech situations, interactive methods, visual communicative tables, audio and video materials, and modern information technologies in developing communicative literacy. The effectiveness of lexical, phonetic, grammatical, orthographic, stylistic, and mixed tables in teaching complex sentences is highlighted. In addition, the role of interdisciplinary connections in enriching students’ vocabulary, developing their oral and written speech, and improving independent thinking skills is emphasized. The results demonstrate that teaching complex sentences based on a communicative

approach is an effective means of developing students' speech competence and communicative literacy.

Keywords: complex sentence, communicative approach, speech situation, communicative literacy, speech competence, interactive method, grammatical knowledge, visual aids, interdisciplinary connection, oral and written speech.

Аннотация.

В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты применения коммуникативного подхода при обучении сложным предложениям посредством речевых ситуаций. Особое внимание уделяется взаимосвязи грамматических знаний учащихся с практической речевой деятельностью, а также формированию навыков точного, последовательного, логичного и выразительного изложения мыслей. Анализируются возможности использования речевых ситуаций, интерактивных методов, наглядных коммуникативных таблиц, аудио- и видеоматериалов, а также современных информационных технологий в развитии коммуникативной грамотности учащихся. Раскрывается эффективность использования лексических, фонетических, грамматических, орфографических, стилистических и комбинированных таблиц при обучении сложным предложениям. Особое внимание уделяется межпредметным связям как средству обогащения словарного запаса учащихся, развития устной и письменной речи, а также совершенствования самостоятельного мышления. Результаты исследования показывают, что обучение сложным предложениям на основе коммуникативного подхода является эффективным средством развития речевой компетенции и коммуникативной грамотности учащихся.

Ключевые слова: сложное предложение, коммуникативный подход, речевая ситуация, коммуникативная грамотность, речевая компетенция, интерактивный метод, грамматические знания, наглядные средства, межпредметные связи, устная и письменная речь.

Maktab darsliklarida qo‘shma gaplarni o‘qitishning asosiy vazifasi o‘quvchilarda gapni to‘g‘ri shakllantirish, fikrni ravon yetkazish, til imkoniyatlaridan foydalangan holda tilning jozibasini ko‘rsatish, qo‘shma gaplarni nutqiy vaziyatlarda qo‘llashdan o‘rinli va unumli foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, o‘z mulohaza va g‘oyalarini izchil yetkazish, nutqni boyitishdan ibortadir.

O‘zbek tili fanidan Davlat ta’lim standarti shu til bo‘yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to‘rt turi: gapirish, nutqni tinglab tushunish, o‘qish va yozish amallari bo‘yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko‘nikmalar me’yorini belgilab beradi. Bunda o‘qishda, mehnat jarayonida va oilada, jamoat joylarida yuzaga

keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o‘qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.[1]

Qo‘shma gaplarni nutqiy vaziyatlar orqali o‘qitishda kommunikativ savodxonlik darajasini orttirishning shakl, yo‘l, vosita va usullarini o‘rganish 9-sinf ona tili darsligining muhim vazifalaridan biridir. Chunki 9-sinfda qo‘shma gaplar haqida barcha grammatik qonun qoidalarni o‘rgangan, amaliyotda tajriba-sinovidan o‘tkazgan o‘quvchilar o‘zlarining fikrlarini aniq, ravon, izchil, ixcham ifodalash malakasiga ega bo‘lishlari, “ talaba-talaba”, “ talaba-o‘qituvchi” sistemasida o‘zaro muloqotni, bahsu munozarani to‘g‘ri tashkil qilish, talaba tafakkurini rivojlantirish jarayonlarini oqilona boshqarish, fikr ifodalash malakasini shakllantirishni o‘rganish, o‘quvchilarni zamonaviy axborot va ig‘or texnologiyalar bilan tanishtirib borish va boshqa nutqni o‘stirishga doir bilim, ko‘nikma, malakalar shakllangan bo‘lishi kerak. Til hodisalarini o‘rganishda eng samarali va sinalgan grammatik vositalardan biri ko‘rgazmali kommunikativ jadvallardir. Kommunikativ jadvallar ishlatilish maqsadiga ko‘ra turlicha bo‘ladi:

1. Leksik jadvallar;
2. Fonetik jadvallar;
3. Grammatik jadvallar;
4. Imloviy jadvallar;
5. Stilistik-uslubiy jadvallar;
6. Aralash jadvallar.

Jadvallar yasalgan materialiga ko‘ra ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi.

1. Bosma jadvallar har xil hajmli oq qog‘oz yoki materialga ishlanadi.
2. Slayd- jadvallar.

Bundan tashqari hozirgi o‘zbek adabiy tilini o‘rganishda zamonaviy texnika vositalari bo‘lmish:

1. Lingofondan foydalanish, ya’ni eshituv a’zolari orqali to‘g‘ri talaffuzni, qiroat san’atini o‘rganish;
2. Video dars: o‘zbek tilining talaffuz me’yorlarini egallash uchun audio-video muloqotni o‘rganish.
3. Kommunikativ savodxonlikni ta’minlashga qaratilgan kompyuter o‘quv dasturlaridan foydalanish yaxshi natijalarga olib keladi.[2]

Kommunikativ savodxonlik DTS talablarida qayd etilgan bo‘lib, nutqiy salohiyatning shakllanuviga olib kelishi zamonaviy til o‘qitish metodikasida tan

olingan interaktiv metodlardan kam emasligi barchaga ma’lum. Shu bilan birga, ona tilida o‘quvchi lug‘atining boyib berishi boshqa mavzularda ham qo‘shma gaplarning barcha turidan foydalangan holda fikr va mulohazalarini yetkazib berish uchun uzluksiz ta’lim muassasalarida o‘rganiladigan boshqa o‘quv fanlarining ham ulkan hissasi bor. Lug‘at zahirasini boyitish, og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish, uslubiy ravon, mantiqiy mukammal matnlar, ilg‘or g‘oyalar yaratishda fanlararo aloqadorlikni yo‘lga qo‘yish ulkan muvaffaqiyatlar xazinasiga, bitmas-tuganmas terminologik manbalarga egalik qilish demakdir.

Til sathlarini o‘zaro bog‘lab o‘rganish—kommunikativ savodxonlik garovi. Ona tili materiallarini o‘zaro bog‘lab o‘rganish, yiriklashtirish, til hodisalarini kuzatish, taqqoslash, guruhlarga ajratish, umumlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga til hodisalari mohiyatini chuqurroq o‘rganishga, nutqda so‘zni me’yoriy va o‘rnida ishlatish ko‘nikmasini mustahkamlashga ijobiy ta’sir qiladi.[3] Shu o‘rinda qo‘shma gaplarni o‘qitish nafaqat ona tilida balki chet tilida qanday degan savollar va o‘quvchilarni qiziqtirib o‘qitish maqsadida maktab va oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan bir nechta tillarda qo‘shma gaplarni o‘qitilishi va ularni nutqiy vaziyatlarda qo‘llash bilan bog‘liq misollarni ko‘rib chiqsak.

Hozirgi, xalqaro muloqot munosabatlariga keng yo‘l ochilgan bir davrda ingiliz tili qo‘shma gaplarning tarjimalari rivojlanmoqda. Ingiliz tili iboralarining, so‘zlarining o‘zbek tili va boshqa tillarga kirib kelishi buning isbotidir. Ingiliz tili o‘rganish hozirda biz yoshlarning oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir. Hozirda dolzard bo‘lgan bu masala qadim bobokalonlarimiz asarlaridayoq kun tartibiga qo‘yilgan edi. Bunga misol qilib Farobiyning yetmushdan ortiq tilni bilganligi, Usmon Nosirning butun bir asarni yoddan tarjima qilganligini va Navoiy hamda boshqa olimlarning ikki tilda ijod qilganligini ko‘rsatib o‘tishimiz joiz.

Qo‘shma gaplarni tekshirish ob’yekti bo‘lgan va bunda ancha qimmatli hamda qiziqarli material berilgan, hayot taraqqiyoti bilan qadam-baqadam yurishini ta’minlovchi sintaktik birliklar, ularning ingiliz va o‘zbek tilidagi tarjimalari berilishi, ularni o‘rganish ob’yekti hozirgi kunda dolzarb masalalardan biridir.

Qo‘shma gaplarga ta’rif berayotganda ingiliz olimlaridan ayrimlari ega va kesimlar soni haqida, ba’zilari qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar soniga ahamiyat beradilar va yana birlari bu ikki holatni birlashtiradilar. Ingiliz tilidagi qo‘shma gap nazariyasi XIX asrning ikkinchi yarmida ingiliz normativ grammatikasida to‘la shakllangan va hozirgi davrgacha hech o‘zgarishsiz saqlanib kelmoqda. Turli oilalarga mansub bo‘lgan tillar grammatikalarida o‘xshash nazariyalar ko‘p. Sodda va qo‘shma gaplar nazariyasi ham bundan mustasno emas.

Masalan,

He opened the door and saw us.
U eshikni ochdi va bizni ko‘rdi.

She stopped, closed her eyes, and pushed the door.
U to‘xtadi, ko‘zini yumdi va eshikni itardi.

Bu kabi holatlar o‘zbek olimlari tomonidan tadqiq etilgan XX asr ilmiy grammatika ta’limotining nazariy asosida XIX asr tilshunosligida gapga ta’rif berish bobida an’anviy va noan’anaviy ta’riflar uchraydi.

Qo‘shma gap ta’rifi, ko‘pincha, uning tarkibi va imda birdan ortiq tobe qisimning mavjudligi bilan bog‘liq Kruisinga qo‘shma gaplar ta’rifida son belgisidan vos kechmaydi, struktur va mazmuniy belgilar – ergash gapli qo‘shma gaplar tarkibiy qismlarining tugalligi va mustaqilligiga tayanadi. Roderik A.Yakobus qo‘shma gap qismlari haqida shunday deydi: Clauses are constructions with one phrase, that bears the subject relation another constituent, the verb phrase, bearing the predicate relation.[4]

Shu bilan birga XX asrning 90-yillaridan ingiliz tilida chop etilgan ilmiy asarlarda sintaksisning umumiy nazariy masalalari tadqiq etilgan. Bu ishlarda qo‘shma gap uning turlari haqida ma’lumot mavjud. Qo‘shma gap tarkibiy qismlari, uning uslublarida qo‘llanishi mavjud.

Ingiliz tilidagi qo‘shma gaplarning o‘zbek tilidagi tarjimasi tahlil etilgan. Dialektikaning qonuni bo‘yicha borliqdagi har bir hodisa serqirrali bo‘lganidek, qo‘shma gaplarning ham qirralari ko‘p.

Ingiliz olimi Ilish qo‘shma gaplarni tadqiq qilar ekan, asosiy farqini ularning qaysi tarkib (clause)ga ko‘ra bog‘langanligiga qarab tadqiq qilgan. Olimning fikricha, ba’zi qo‘shma gaplar vazifasiga ko‘ra bog‘lovchi so‘z yordamida bog‘lanadi va uning ma’nosi aniqlanadi, ba’zilari esa bog‘langanda bunday so‘zlarni talab qilmaydi. Bog‘lovchilar yordamida birikkan qo‘shma gap—bog‘lovchili qo‘shma gap (syndetic) bog‘lovchi so‘z olmaydigan qo‘shma gap—bog‘lovchisiz qo‘shma gap(asyndetic) bo‘ladi. Lekin bularning ikkisi ham bir nechta tarkibda bo‘lganligi uchun olim qo‘shma gap deb ataydi.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida qo‘shma gaplarni o‘qitishda an’anaviy grammatik yondashuv bilan bir qatorda kommunikativ yondashuvdan samarali foydalanish o‘quvchilarning grammatik bilimlarini amaliy nutqiy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi. Ayniqsa, qo‘shma gaplarning tuzilishi, mazmuniy munosabati va qo‘llanish xususiyatlarini turli nutqiy vaziyatlar asosida o‘rgatish o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Nutqiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar o‘quvchini tayyor grammatik qoidani

yodlashga emas, balki undan real kommunikativ jarayonda maqsadga muvofiq foydalanishga undaydi. Dialog, munozara, suhbat, muammoli vaziyat, ijodiy topshiriq va matn yaratish kabi metodlar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, fikrni izchil va grammatik jihatdan to‘g‘ri ifodalashi hamda kommunikativ kompetensiyasi rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari. – Toshkent.
2. G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
3. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
5. Azimov E.G., Shukurov R.R. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
6. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009.
7. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
8. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008.
9. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
10. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2006.